

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI

Turayev Abduvohid Qo‘ldoshevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Raqqamli iqtisodiyot” kafedrasii asisssenti

E-mail: abduvohidturayev70@gmail.com

Jamolov Jaloliddin Murodjon o‘g‘li

Samarqad iqtisodiyot va servis
instituti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi
E-mail: jaloliddinjamolov1998@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola ilmiy-tahliliy jihatdan O‘zbekistonda ijtimoiy iqtisodiyotning shakllanish jarayonining bosqichlari, chora-tadbirlari va mohiyatining mazmunini ifodalab beradi. Shuningdek, ushbu ish mamlakatning iqtisodiyotida ijtimoiy tizim tutgan o‘rni va bu jabhada amalga oshirilayotgan ishlarning tahlili yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy xizmat, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy davlat.

Аннотация: В данной статье научно и аналитически представлены этапы, меры и сущность процесса становления социальной экономики в Узбекистане. Также освещается роль социальной системы в экономике страны и дается анализ проводимой в этой области работы.

Ключевые слова: социальная экономика, социальная политика, социальное обслуживание, образование, здравоохранение, социальное государство.

Abstract: This article scientifically and analytically presents the stages, measures and essence of the process of formation of the social economy in Uzbekistan. Also, this work highlights the role of the social system in the country's economy and an analysis of the work being carried out in this area.

Keywords: social economy, social policy, social service, education, healthcare, social state.

Kirish. O‘zbekistonda ijtimoiy iqtisodiyotning shakllanishi mustaqillikdan keyingi davrning eng muhim jarayonlaridan biridir. Yangi iqtisodiy tizim barpo etilar ekan, davlat nafaqat bozor mexanizmlarini joriy etishni, balki aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishni ham ustuvor vazifa sifatida belgiladi. Shu bois iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda ijtimoiy adolat, fuqarolar farovonligi va teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli huquqiy baza shakllantirildi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mamlakat “ijtimoiy davlat” ekani qayd etilgani bejiz emas. Bu norma davlat zimmasiga aholining munosib turmush darajasini ta’minlash, mehnat, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot kabi asosiy huquqlarini qo‘llab-quvvatlash majburiyatini yuklaydi. Keyinchalik qabul qilingan “Aholini ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”[1] gi Qonun, “Aholi bandligi to‘g‘risida”[2]gi Qonun hamda ijtimoiy xizmatlar va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat qarorlari ushbu yo‘nalishning amaliy asosiga aylandi.

Bugungi kunda ijtimoiy iqtisodiyot O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi bo‘lib, u bozor mexanizmlarining samaradorligini oshirish bilan birga, aholining turmush sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada ijtimoiy iqtisodiyotning shakllanishi, uning huquqiy asoslari va amaliy ahamiyati keng yoritiladi. Ijtimoiy iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat ijtimoiy himoya tizimini mustahkamladi, balki iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ham yangi imkoniyatlar yaratdi. Bugungi kunda aholining farovonligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va xizmatlar sifati yaxshilanishi — ushbu modeli amaliy natijalaridan biridir[3].

Adabiyotlar sharhi.

I.A.Karimovning “Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida” nomli qo‘llanmasida iqtisodiy islohotlarning nazariy tamoyillarini, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda davlatning bosh rolini va bozor iqtisodiyotiga o‘tishda aholining ijtimoiy himoyasiga alohida e’tibor qaratish zarurligini chuqur asoslab beradi. Bu manba ijtimoiy iqtisodiyotning shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan konseptual yondashuvlarni ochib beradi[4].

A.U.Azimov “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlari”[5] nomli maqolada O‘zbekistonning zamonaviy sharoitlarda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Infratuzilmani modernizatsiya qilish, iqtisodiyotni raqamlashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash, aholi turmush sharoitini yaxshilash va chet el investitsiyalarini jalb qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan islohotlar tahlil qilingan.

Q.X. Abdurahmonovning “Mehnat iqtisodiyoti” asari ijtimoiy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan mehnat bozori rivoji, bandlik siyosati, aholi farovonligi va mehnat munosabatlarining takomillashuvi masalalarini ilmiy tahlil qiladi. Uning tadqiqotlari ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda samarali mehnat bozori mexanizmlarining ahamiyatini ochib beradi[6].

Nodira Djumabayeva yozgan maqolada iqtisodiy o‘sish to‘liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potensial ishlab chiqarish darajasini uzoq muddatli ko‘payishi tendensiyasini anglatadi. Iqtisodiy o‘sish haqiqiy va potensial YaIM hajmining oshishini bildiradi. Iqtisodiy o‘sish muammosini o‘rganish natijasida real ishlab

chiqarish tizimi duch keluvchi - cheklangan resurslardan samarali foydalanish muammosiga echim topiladi. Demak, iqtisodiy o'sish omillari va ular samaradorligini o'rganish hamda tahlil qilish jamiyat oldidagi eng dolzarb muammolardan biridir. Iqtisodiy o'sish nafaqat mamlakat real daromadlarining o'sishi, shuningdek, jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarning o'sishini ham anglatadi. Shu sababli ham iqtisodiy o'sish ikki xil usul bilan o'lchanadi[7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada tahlil jarayonlari empirik, statistik, qiyosiy-tahliliy hamda solishtirish usullaridan keng foydalanilgan holda amalga oshirildi. Barcha yig'ilgan ma'lumotlar umumiy ko'rinishga keltirib ularning tahlillari olib borildi va yakunda umumiy xulosalar chiqarildi. Bu sohadagi muammolar o'rganilib oxirida ushbu muammolarga echimlar va sohani rivojlantirish uchun takliflar ilgari surildi.

Tahlil va natijalar.

O'zbekistonda ijtimoiy iqtisodiyotning shakllanishi jarayoni iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, ijtimoiy himoya tizimining modernizatsiya qilinishi va aholining farovonlik darajasini oshirishga qaratilgan davlat siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu jarayon bir nechta asosiy yo'nalishlar orqali o'zining amaliy natijalarini bergan.

Birinchidan, ijtimoiy iqtisodiyotning shakllanishida huquqiy asoslarning yaratilishi eng muhim omillardan biri bo'ldi. Konstitutsiyada O'zbekistonning "ijtimoiy davlat" deb belgilanishi barcha keyingi islohotlarning yo'nalishini belgilab berdi. "Aholini ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"[1]gi qonun aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashni tizimli ravishda yo'lga qo'ydi. Bu kabi hujjatlar ijtimoiy xizmatlarning huquqiy maqomini mustahkamlab, ijtimoiy yordam olish tartibining tez va qulay bo'lishini ta'minladi.

Ikkinchidan, tahlillar ijtimoiy iqtisodiyotning shakllanishi iqtisodiy sektorda ham sezilarli o'zgarishlar yaganini ko'rsatadi. Iqtisodiyotning bozor tamoyillariga o'tishi bilan birga davlat tomonidan subsidiyalar, ijtimoiy nafaqalar, manzilli yordam tizimi, uy-joy dasturlari, sog'liqni saqlash va ta'limga qo'shimcha mablag'lar ajratilishi aholining umumiy farovonligini sezilarli darajada yaxshiladi. Ayniqsa, oxirgi yillarda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlar, xususan "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" tizimlarining joriy etilishi aholining real ehtiyojini o'rganish va manzilli yordam ko'rsatishga imkon yaratdi.

Uchinchidan, mehnat bozori islohotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy iqtisodiyotning shakllanishida bandlik siyosati muhim rol o'ynadi. Davlat tomonidan har yili yuz minglab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, oilaviy tadbirkorlik dasturlarining kengayishi natijasida ishsizlik darajasi bosqichma-bosqich kamayib bordi. Bunday siyosat

iqtisodiy faol qatlamning kengayishi, aholi daromadlarining ko‘payishi va ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qildi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy xizmatlar tizimini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish ijtimoiy iqtisodiyotning samaradorligini yanada oshirdi. Yagona ijtimoiy reyestrning joriy etilishi yordam so‘rovlarining to‘g‘ri va shaffof qayd etilishiga, mablag‘larning maqsadli sarflanishiga erishdi. Raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi ijtimoiy yordam tizimining qamrovini kengaytirdi va korrupsiya risklarini sezilarli darajada kamaytirdi.

Beshinchidan, ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimlarida amalga oshirilgan islohotlar ham ijtimoiy iqtisodiyotning ajralmas qismi sifatida o‘rganildi. Maktablar, bog‘chalar va tibbiy muassasalar moddiy-texnik bazasining yaxshilanishi, xususiyl sektorning faol kirib kelishi, davlat-xususiyl sheriklik loyihalarining kengayishi aholi uchun yanada sifatli xizmatlarni taqdim etish imkonini yaratdi. Bularning barchasi inson kapitalining rivojlanishiga, demakki, mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyatining oshishiga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishda sezilarli natijalarga erishgan. Ijtimoiy himoya tizimining yaxshilanishi, bandlikning oshishi, xizmatlar sifatining yuksalishi, turmush darajasining o‘sishi va manzilli yordam tizimining takomillashishi bu boradagi eng muhim yutuqlardir. Shu bilan birga, aholining ijtimoiy ehtiyojlarini to‘liq qamrab olish, ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada oshirish va kambag‘allikni minimal darajagacha kamaytirish kabi vazifalar hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

1-jadval.

Oliy ta‘lim tashkilotlari soni[8]

Yillar	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025 yanvar- sentyabr
Oliy ta‘lim tashkilotlari soni	119	127	154	191	219	222	223


2019–2025-yillar yanvar-sentyabr davri mobaynida O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim tashkilotlari sonining dinamikasi barqaror o‘shish bilan tavsiflanadi. Jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda 119 ta bo‘lgan oliy ta‘lim muassasalari soni 2025-yilning dastlabki to‘qqiz oyida 223 taga etgan. Bu davr ichida jami 104 ta yangi oliy ta‘lim tashkiloti tashkil etilgan bo‘lib, o‘shish sur‘ati 87% atrofida shakllangan. Ushbu ko‘rsatkich mamlakatda oliy ta‘lim sohasini kengaytirish, qamrovni oshirish va ta‘lim infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo‘yicha olib borilgan izchil siyosatning natijasidir.

Yillik kesimda eng keskin o'sish 2020–2022-yillar oralig'ida kuzatilgan. Xususan, 2020-yilda tashkilotlar soni 127 taga etib, 2019-yilga nisbatan 8 ta yoki 6,7% o'sish namoyon bo'lgan. 2021-yilda esa bu ko'rsatkich 154 taga ko'tarilgan bo'lib, bir yil ichida 27 ta yangi oliy ta'lim muassasasi tashkil etilgan (o'sish sur'ati 21,2%). 2022-yilda o'sish sur'ati yanada keskinlashib, tashkilotlar soni 191 taga etgan, ya'ni bir yillik ko'payish 37 ta (o'sish 24%) ni tashkil etgan. Bu yillarda xususiy oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish jarayonlarining faollashuvi, xorijiy universitetlarning filiallari ochilishi va hududiy ta'lim infratuzilmasining kengayishi asosiy omil bo'ldi.

2023–2025-yillar davrida o'sish nisbatan sekinlashgan bo'lsa-da, ijobiy dinamika saqlanib qolgan. 2023-yilda jami 219 ta oliy ta'lim tashkiloti faoliyat ko'rsatgan bo'lib, bu 2022-yilga nisbatan 28 ta ko'proq (o'sish 14,7%). 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 222 taga etib, o'sish 3 taga kamayish bilan davom etgan. 2025-yil yanvar-sentyabr holatiga ko'ra esa oliy ta'lim tashkilotlari soni 223 taga etgan bo'lib, 2024-yilga nisbatan 1 ta o'sish qayd etilgan. Ushbu davrda o'sish sur'atining sekinlashishi sohada son emas, balki sifat ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan islohotlarning faollashgani bilan izohlanadi.

Umuman olganda, 2019–2025-yillar davomida oliy ta'lim tizimida kuzatilgan o'sish mamlakatda ta'limga bo'lgan talabning ortishi, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik yondashuv, hududlarda oliy ma'lumotli mutaxassislariga ehtiyojning kuchayishi va ta'lim sohasining davlat-hususiy sheriklik asosida kengayishi bilan bog'liqdir.

“2025 yilning yanvar-sentyabr holatiga ko'ra, aholi jon boshiga umumiy daromadlar 21,8 mln so'mni, aholi jon boshiga umumiy daromadlarning nominal o'sish sur'ati 116,1 % ni tashkil etdi, real o'sish sur'ati 106,3 % ni tashkil etdi. Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2021 yilning yanvar-sentyabr holatiga ko'ra, aholi jon boshiga umumiy daromadlar 11,0 mln so'mni tashkil etgan, 2025 yilga kelib bu ko'rsatkich deyarli ikki baravar ko'paydi. Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning nominal o'sish sur'ati 2021 yilning yanvar-sentyabr oylarida 120,9 %, 2025 yilning yanvar-sentyabr oylarida 116,1 % ni tashkil etdi”[9].



1-rasm. O'zbekistonda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM[10]

(* 2025-yil yanvar-sentyabr oyi ma'lumotlar)

2010–2014 yillarda aholi jon boshiga YaIM izchil o'sish tendensiyasini namoyon qilgan. 2010 yilda 3084,6 ming so'mni tashkil etgan ko'rsatkich 2014 yilga kelib 6860 ming so'mga etgan. Bu davrda o'sishning asosiy omillari iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, investitsiya faolligi hamda sanoatning izchil kengayishi bilan izohlanadi. Yillik o'sish sur'atlari nisbatan barqaror bo'lib, real daromadlarning oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

2015–2017 yillarda jon boshiga YaIM hajmi sezilarli darajada oshgan bo'lib, 2015 yilda 8004,9 ming so'mni tashkil qilgan ko'rsatkich 2017 yilga kelib 11 411,8 ming so'mga etgan. Ushbu davrda o'sish sur'atining tezlashishi iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi, modernizatsiya va tarkibiy o'zgarishlarning chuqurlashuvi bilan bog'liq. Ayniqsa 2017 yildagi keskin o'sish iqtisodiyotning ochiqqligi va yangi iqtisodiy siyosatning amaliy natijalari sifatida baholanishi mumkin.

2018–2020 yillarda o'sish yanada jadallashgan. 2018 yilda jon boshiga YaIM 15014,4 ming so'mni, 2019 yilda 18465,6 ming so'mni tashkil qilgan. 2020 yilda pandemiya ta'siriga qaramay, ko'rsatkich 20596,9 ming so'mga oshgan. Bu davrda iqtisodiyotning moslashuvchanligi, fiskal qo'llab-quvvatlash paketlari va bank-moliya tizimining barqarorligi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayib ketishiga yo'l qo'ymagan.

2021–2024 yillar mobaynida jon boshiga YaIM ning o'sish sur'atlari keskin tezlashgan bo'lib, 2021 yilda 24 664,7 ming so'mga, 2022 yilda 29 226,7 ming so'mga, 2023 yilda 34 653,2 ming so'mga etgan. 2024 yilga kelib esa bu ko'rsatkich 41 306,7 ming so'mni tashkil etgan. Ushbu o'sishning asosiy drayverlari iqtisodiy liberallashtirish

jarayonlarining chuqurlashuvi, eksport salohiyatining kengayishi, xizmatlar sektorining tez o'sishi va investitsiyalarning ko'payishi bilan izohlanadi.

“2025 yilning dastlabki yanvar–sentyabr davrida jon boshiga YaIM 34 483,9 ming so'mni tashkil etgani kuzatilgan. Bu 2024 yil yakuniy ko'rsatkichidan past bo'lsa-da, yilning to'liq yakuni hali shakllanmaganini e'tiborga olish lozim. Yil davomida mavsumiylik, iqtisodiy sikllar va tashqi bozorlardagi o'zgarishlar ushbu raqamlarning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin”[11].

Grafikdan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda aholi jon boshiga YaIM 2010–2024 yillar davomida barqaror va izchil o'sish tendensiyasini namoyon qilgan. Mazkur davrda ko'rsatkich qariyb 13,4 baravar oshgan bo'lib, bu iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi, yangi iqtisodiy siyosatning samaradorligi, investitsiyalar oqimining ko'payishi va xizmatlar sektorining o'sish sur'atlari bilan izohlanadi. 2025 yilning dastlabki ko'rsatkichlari yil yakunlari shakllanishi bilan yanada o'zgarishi kutiladi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy iqtisodiyotning shakllanishi mustaqillik yillaridan boshlab amalga oshirilib, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining muhim omiliga aylangan. Ushbu jarayon davlat siyosati, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy dasturlar uyg'unligi orqali amalga oshirilgan. Ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, bandlikni ta'minlash, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirish hamda aholining turmush darajasini oshirish ijtimoiy iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilangan.

Mazkur yo'nalishlar aholining ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga, kambag'allikni kamaytirishga, iqtisodiy faollikni oshirishga hamda turli hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning barqaror o'sishi mamlakat iqtisodiyoti va jamiyatning umumiy rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Biroq, ijtimoiy iqtisodiyotning samaradorligini yanada oshirish uchun davlatning maqsadli dasturlarini rivojlantirish, hududlararo tafovutlarni kamaytirish va innovatsion echimlarni joriy etish muhimdir. Shu bilan birga, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, raqamlashtirish va monitoring tizimini kuchaytirish orqali aholining haqiqiy ehtiyojlariga moslashgan barqaror rivojlanish ta'minlanadi.

Umuman olganda, O'zbekiston ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishda muhim yutuqlarga erishgan, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi poydevor yaratgan. Kelajakda esa ushbu modelni takomillashtirish orqali aholining farovonligini oshirish va iqtisodiy o'sishni ijtimoiy barqarorlik bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari mavjud.

Adabiyotlar ro'yxati

- [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, 30.01.2025 yildagi PF-17-son <https://www.lex.uz/docs/-7374261>
- [2]. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonuni, 20.10.2020 yildagi O‘RQ-642-son <https://lex.uz/uz/docs/-5055690?ONDATE=22.02.2024>
- [3]. “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi QL-63-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi/ <https://lex.uz/uz/docs/-7513576>
- [4]. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida / I.A.Karimov; [nashr uchun mas’ul K.Bo‘ronov]. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. / <http://natlib.uz/Content/userfiles/upload/Prezident%20asarlari/PDF%20uz/16.pdf>
- [5]. Azimov A.U. “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlari” 2024 «Гуманитарные науки» <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-ijtimoiy-iqtisodiy-taraqqiyotning-asosiy-yo-nalishlari>
- [6]. Abdurahmonov, Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. — Toshkent: Mehnat nashriyoti, 2010. / <https://arm.ssuv.uz/frontend/web/books/669f947a35687.pdf>
- [7]. Nodira Djumabayeva, O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari – Maqola / <file:///C:/Users/User/Downloads/o-zbekistonda-ijtimoiy-iqtisodiy-rivojlanishning-ustuvor-yo-nalishlari.pdf>
- [8]. O‘zbekiston Respublikasi rasmiy statistika qo‘mitasi. (Oliy ta’lim tashkilotlari soni) https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_814.pdf
- [9]. <https://siat.stat.uz/reports-filed/2732/table-data> O‘zbekiston Respublikasi rasmiy statistika qo‘mitasi. (oliy ta’lim tashkilotlari soni)
- [10]. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси АХБОРОТНОМА Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=604&id=4129&Itemid=1000000000000
- [11]. O‘zbekiston Respublikasi rasmiy statistika qo‘mitasi. https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=604&id=4111&Itemid=1000000000000